



## IQTISODIY MASALALARNI YECHISHDA MICROSOFT OFFICE EXCEL DASTURI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

**Shaymardanova Dildora Xaydarjon Qizi**

*Nukus innovatsion instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada iqtisodiy va buxgalteriyaga oid hisob-kitob masalalarini bajarishda Microsoft Office dasturlar paketiga kiruvchi MS Excel dasturi imkoniyatlaridan unumli foydalanish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Iqtisod, Microsoft office, MS Excel, ssuda, funksiya, intellektual soha*

Globalashuv jarayonlari chuqurlashayotgan va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi Keskin o'zgarayotgan vaqtda telekommunikatsiya sanoati iqtisodiyotning alohida olingan sohasi sifatida rivoj topishi hamda iqtisodiyotning boshqa sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Texnik imkoniyatlarning oshishi va mazkur sanoatning salohiyatini amaliyotda to'laqonli qo'llash milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi va shu tarzda xususiy va davlat tuzilmalarining strategik barqarorligini ta'minladi. Hozirgi kunda mutaxassislar, guruhlar, yirik ishlab chiqarish korxonalarini yoki muassasalarining faoliyati ko'p jihatdan ularning qay darajada zaruriy ma'lumot va axborotlar bilan to'la ta'minlanganligiga, hamda ushbu ma'lumotlardan qay darajada samarali foydalana olayotganliklariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Avvalo bir yechimga kelishdan, qaror qilishdan oldin ushbu masalaga (sohaga) aloqador bo'lgan juda ko'plab ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash va tahlil qilish zarur bo'ladi. Ba'zan bunday ma'lumotlar miqdori shu qadar ko'payib ketadiki, ularni qayta ishlash va tahlil qilishni maxsus texnik tizimlar yordamisiz amalga oshirib bo'lmay qoladi. Bundan tashqari, kundalik hayotda qabul qilish, qayta ishlash zarur bo'lgan axborotlar hajmi nihoyatda ortib borayotganligi sababli, ba'zan ularni guruhlar bo'yicha jamlash, maqsadli tarzda taqsimlash va ishlov berish ko'p vaqtni talab etmoqda. Axborot hajmining bu qadar ko'payib ketishi hamda ma'lumotlar oqimining tezlashib borishining asosiy sabablaridan biri axborot texnika, texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy eng yangi texnologiyalarini qo'llash, ikkilamchi xom-ashyolardan oqilona foydalanish, energetik resurslarni tejamkorlik bilan ishlatish, inson mehnatini engillashtirish hisobiga oshirish bosqichiga kirganligidir. Bu esa, o'z navbatida, yuqori darajada axborotlashgan jamiyat bo'lishini talab etadi.

Jamiyatning axborotlashuv atamasi - D.Benk va E.Masudolar tomonidan ilk bor qo'llanilgan bo'lib, bugungi kunda mavjud bo'lgan ziddiyatlardan holi bo'lgan, komp'yuterlar, informatika, elektronika bilan uyg'unlashib ketgan jamiyat ma'nosini anglatadi. Kengroq ma'noda olsak, axborotlashgan jamiyatda - jamiyatning axborotlashuvi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonunlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu



inson faoliyatining barcha sohalariga intellektual mehnat quroli sifatida axborotlarni tezkorlik bilan yig'ish, qayta ishlash, jarayon, voqea va hodisalarni modellashtirish, ularni tahlil qilish imkonini beruvchi komp'yuterlashtirilgan tizimlar va boshqa axborot texnologiyalari kirib kelishini anglatadi. Ana shunday texnologiyalardan biri – shak shubhasiz MICROSOFT EXCEL dasturi hisoblanadi.

Olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, birinchidan, bu MICROSOFT EXCEL dasturining imkoniyatlari juda ham rang-barang va boy. Deyarli har bir foydalanuvchi bu o'zi uchun ko'plab hayotiy masalalarni xal qilishda foydalanishi uchun imkoniyatlar mavjud. Ikkinchidan, MICROSOFT EXCEL imkoniyatlari ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, biznes, tijorat va boshqa ko'plab sohalarida qo'llanish va yanada kengroq tatbiq etishga imkon beradi.

### **MS EXCEL dasturining iqtisodiyotga doir funksiyalari**

MS EXCEL dasturida davriy to'lovlar bilan bog'liq bir qator funksiyalar nazarda tutilgan:

- 1) hisob davrida o'zgaras protsent stavkalari asosida amalga oshiriladigan davriy to'lovlar (ПЛТ funksiyasi);
- 2) muayyan davr uchun protsentlar bo'yicha to'lov (ППЛТ funksiyasi);
- 3) bir necha marta ketma-ket keluvchi davrlar uchun protsentlar bo'yicha to'lov (ОБЩПЛАТ funksiyasi);
- 4) konkret davr uchun zaymlar bo'yicha asosiy to'lovlar (protsentlarni ushlab qolgan xolda) (ОСПЛТ funksiyasi);
- 5) bir necha marta ketma-ket keluvchi davrlar uchun asosiy to'lovlar summasi (ОБЩДОХОД funksiya).

Ushbu miqdorlarning hammasi to'lovlar sxemasi o'zgarmaydigan xollar uchun (masalan, qarzlarni bir hil darajada tekis to'lab borish) hisoblanadi. Faraz 13 qilaylik, qarzlarni to'lash xar bir hisob davrida bir xildagi to'lovlar bilan amalga oshiriladi. Bu to'lovlarning kelajakdagi umumiy miqdori qarz summasi va oxirgi hisob davri uchun hisoblangan foizlarning yig'indisiga tepg bo'ladi (agar qarzni to'la to'lash nazarda tutilgan bo'lsa). Boshqa tomonlan, qarz bo'yicha joriy to'lov miqdori qarzning hozirgi vaqtdagi miqdoriga teng bo'lishi kerak. Agar qarz summasi, protsent stavkasi, qarz 14 olingan muddat kabi ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, u xolda ПЛТ funksiyasi yordamida qarzlarni bir xil miqdorda tekis to'lab borish uchun davriy to'lovlar summasini aniqlash mumkin.

**Misol keltiramiz.** Faraz qilaylik, Xar bir oyning oxirida ma'lum bir summadan jamg'arib, uch yil mobaynida 4000 yuz ming so'mni yig'ish talab qilingan bo'lsin. Agar omonat bo'yicha yillik protsent stavkasi 12 % bo'lsa, boshlang'ich omonat miqdori qancha bo'lishi lozim.

Yechish: Dastlab protsentlarni qo'shish xamda davr uchun protsent stavkalarini e'tiborga olgan xolda protsentlarni qo'shish uchun umumiy davrlar sonini aniqlaymiz. Bu miqdorlar mos ravishda 312 va 12% / 12 (norma argumenti) ga teng. Tip





argumenti nolga teng. Oylararo to'lov summasini aniqlaymiz:  
 $ПЛТ(12\%/12;12*3;;4000) = -92.86$  ming so'm.

Masala. Aytaylik, bank 4 yilga yillik 18% protsent stakasi bilan 200 ming so'm qarz (ssuda) bergan bo'lsin. Ssuda yil boshida berilgan. To'lovlar esa yil oxirida bir xil miqdorlar bilan amalga oshiriladi. Ssudaning har bir yildagi to'lovlari xajmini aniqlang.

Yechish. Yillararo to'lovlar xajmi  $ПЛТ(18\%;4;-200000) = 74.35$  mln so'mni tashkil qiladi.

Eslatma: bank uchun berilayotgan ssuda summasi manfiy miqdor (chiqim), yillararo to'lovlar miqdori esa musbat qiymat (kirim) hisoblanadi.

Xulosa o'rnida biz maqolamizda MICROSOFT EXCEL dasturidan odatda faqat buxgalteriya bilan bog'liq jadvalli ma'lumotlarni qayta ishlashda emas balki, ushbu dastur bir qator ilmiy masalalarni hal qilishga, bank amaliyotida tez-tez qo'llanadigan masalalarga ham tatbiq etilishi mumkin ekanligini yoritdik. MICROSOFT EXCEL tarkibiga kirgan bir qator funksiyalar banklarning oddiy mijozlariga bugungi kunda jamiyatda keng tarqalib borayotgan kredit olish, omonatga jamg'armalarni qo'yish kabi masalalarda qarorlar qabul qilishda yordam berishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.
2. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION JOURNAL*, 3(10), 97-100.
3. Гулбоев, Н. А., Дуйсенов, Н. Э., Ахмедов, Б. А. (2020). Модели систем управления электрическими сетями. *Молодой ученый*, 22(312), 105-107.
4. Мухамедов, Ф. И., & Ахмедов, Б. А. (2020). Инновацион "Klaster mobile" иловаси. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 140-145